# UZBEKISTAN AIRWAYS

INFLIGHT MAGAZINE

November, 2022

#07



**06**
O`zbekistondagi
TURIZM YO`NALISHLARI

**Types of tourism** IN UZBEKISTAN

**28**
2023-yilda Samarqand
JAHON TURIZM POYTAXTI
BO`LADI

**Samarkand will become** THE WORLD TOURISM
CAPITAL IN 2023

**31**
O`zbek
MILLIY OSHXONASI

**Uzbek**
NATIONAL CUISINE


Yuqori Sifatda
Dam Olishni
His Eting
Feel What It's
Like To Go
First Class
Hilton
Hilton

# Qulaylikni tanlagan holda dam olishingizni

## Hilton Tashkent Cityda o'tkazing

- **FIRST** Hilton Hotels & Resorts property in Uzbekistan
- **258** luxury rooms, including 50 Suites and 8 Presidential Suites designed in 4 unique styles
- **BALLROOM** 728 sq. m with an outdoor terrace
- 1 000 sq. m
- **5** multifunctional meeting rooms for conferences and social events
- **RESTAURANTS & BARS:** Shosh Restaurant, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Asian Restaurant & Lounge on the 21st floor
- **HEALTH CENTRE:** swimming pool with hydromassage bath, Serenity Spa, steam and dry sauna, fitness centre

- O'zbekistondagi **BIRINCHI** Hilton Hotels & Resorts mehmonxonalar mulki
- **258** ta hashamatli xonalar, shu jumladan 50 ta lyuks va 8 ta prezident apartamentlari
- Maydoni 728 kv.m va terrasasi 1000 kv.m lik Ballroom
- Konferensiyalar va ijtimoiy tadbirlar uchun **5** ta ko'p funksiyali majlis xonalari
- **RESTORAN VA BARLAR:** Shosh Restoran, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Osiyo Restoran & Lounge 21-qavatda
- **SALOMATLIK MARKAZI:** gidromassajli va suzish basseyni,Serenity Spa, bug 'li va quruq sauna, fitnes markazi



@hiltontashkentcityhotel
@HiltonTashkentCity
www.tashkentcity.hilton.com

Islom Karimov ko'chasi, 2-uy, 5-blok
Toshkent, 100027, O'zbekiston
+998 71 210 88 88

2, Islam Karimov Street, block 5
Tashkent, 100027, Uzbekistan
+998 71 210 88 88

Hilton
TASHKENT CITY

Hilton

Hilton Honors

# Uzbekistan Airways

## Bort jurnali Inflight Magazine

#07, November, (112) 2022



Tahririyat kengashi raisi
Chairman of the Editorial Board

Umid Xusanov

Bosh muharrir
Editor-in-Chief

Yulduz Latipaeva

Dizayn va sahifalovchi
Design & Layout

Nodira Shoxizindayeva

Tahririyat jamoasi
Editorial team

Ozoda Azimova
Kamola Ikramova
Bahodir Imomjonov
Matluba Kuliyeva
Jamoliddin Hamdamov
Arslan Faritov
Abror Abduvaitov

Foto
Photo

Roman Valiev



Reklama bo‘yicha murojaat:
For advertisement:

+998 78 140-45-20
+998 78 140-45-21

Manzil:
Amir Temur shohko‘chasi, 41, Toshkent, 100015,
O‘zbekiston
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

1993-yildan beri nashr etiladi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyati

Address:
Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

Published Since 1993 Publisher — JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar(O‘zMAA) 03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration number No 0115

«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan. Buyurtma № 1383 Adadi 10 000
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani, Qo‘shko‘prik ko‘chasi, 28/1 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order #1383 Circulation - 10 000
Address: 28/1, Mirabad dis., Koshkoprik st., Tashkent

# MUNDARIJA CONTENTS


06 O‘zbekistondagi turizm yo‘nalishlari

10 Types of tourism in Uzbekistan

16 O‘zbekiston festivallari

18 Festivals in Uzbekistan

23 O‘zbekiston turizm qishloqlari

25 Tourist villages of Uzbekistan

28 2023-yilda Samarqand jahon turizm poytaxti bo‘ladi

29 Samarkand will become the world tourism capital in 2023

31 O‘zbek milliy oshxonasi

33 Uzbek national cuisine







35 O‘zbekistonga sayohat qilish uchun 5 sabab

5 reasons to visit Uzbekistan

42 Afisha

39 Uzbekistan Airways`ning bort taomi

Uzbekistan Airways inflight meal

44 Uzbekistan Airways parvozlar xaritasi

Uzbekistan Airways international flights

40 Aviakompaniya yangiliklari

News of Uzbekistan Airways

46 Uzbekistan Airways vakolatxonalari

Uzbekistan Airways representative offices









## Hurmatli yo‘lovchilar!

Sizni bort sahnida kutib olishdan mamnunmiz. E’tiboringizga Uzbekistan Airways aviakompaniyasining navbatdagi bort jurnali sonini havola etamiz. Ushbu sonimizni iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan – O‘zbekiston turizmiga bag‘ishladik. Bu yerda Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan mamlakatning boy turizm salohiyati haqida ma’lumotlar topasiz.

O‘zbekiston gastronomik, tog‘ va ekologik, tog‘ chang‘i turizmi, mamlakatning madaniy va tarixiy merosi hamda muqaddas joylariga ziyorat turizmlari kabi yo‘nalishlarda ulkan sayyohlik salohiyatiga ega.

Hozirgi kunda O‘zbekistondagi infratuzilma, gidlik va sifatli xizmat kabi barcha turizm yo‘nalishlariga bo‘lgan talab takliflarning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Turizm xizmatlariga talabning yuqoriligi investitsiya uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochib beradi. O‘zbekiston ko‘plab xalqaro aviakompaniyalar uchun o‘ta muhim bozor bo‘lib qolmoqda, iqtisodiyotdagi jiddiy islohotlar tufayli mamlakatimizda o‘zining xizmatlarini ko‘rsatuvchi aviakompaniyalar soni ortib bormoqda. Uzbekistan Airways, Aeroflot, Asiana Airlines, UtAir, FlyDubai, Air Astana, Azal, Turkish Airlines, Air Cairo va boshqalar shular jumlasidandir.

Pandemiyaga qaramay, mamlakatimiz iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib chiqdi va joriy yilda O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimi 3,5 million kishidan oshdi. Bu ko‘rsatkichlar oldinda yanada qiziqarli imkoniyatlar borligi sababli ortib boraveradi. O‘zbekiston rahbariyati tomonidan turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida 2026-yilga borib mahalliy sayyohlar sonini 12 millionga, chet ellik sayyohlar sonini esa 9 millionga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Respublikamizning turistik shaharlarida turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish, madaniy meros obyektlarini tiklash va obodonlashtirish, shuningdek, madaniy-ko‘ngilochar infratuzilmalarni yaratish orqali to‘siqsiz turizm infratuzilmasini joriy etish rejalashtirilgan. Ishonamizki, mamlakatimizga tashrif buyurish siz uchun mazali o‘zbek oshxonasining ta’mi bilan birgalikda juda maftunkor va qiziqarli sayohat bo‘ladi.

**Sizga yoqimli parvoz tilaymiz!**

## Dear passengers!

Uzbekistan Airways welcomes you on board!

We are glad to present you the next issue of monthly inflight magazine of Uzbekistan Airways. This edition we dedicate to the locomotive and interesting sphere – tourism in Uzbekistan. Here you will find information about tourism potential of the land located in the very heart of Central Asia. Uzbekistan has a huge tourism potential: food tourism; mountain and eco-tourism; tourism on the cultural and historical heritage of the country; alpine skiing tourism; pilgrimage tourism in holy places. Currently demand still exceeds supply in all areas of tourism in Uzbekistan: infrastructure, guides and quality service. High demand in touristic services opens many opportunities for investment.

Uzbekistan remains a very important market for many international airline-companies, the number of airlines providing their services in our country is increasing because of significant reforms in economy. Today these are: Uzbekistan Airways, Aeroflot, Asiana Airlines, UtAir, FlyDubai, Air Astana, Azal, Turkish Airlines, Air Cairo and many others.

Despite the pandemic, our country has overcome the economic difficulties and this year the tourists flow in Uzbekistan exceeded 3, 5 mln. This number will grow as more exciting opportunities are yet to come. In order to develop the tourism sector, the government has developed a strategy according to which by 2026 the number of local tourists should increase to 12 million and foreign tourists to 9 million as part of Uzbekistan Travel program.

In the tourist cities of the country, it is planned to introduce barrier-free tourism infrastructure by establishing engineering and communication networks for tourism facilities, restoring and improving cultural heritage sites, as well as creating cultural and entertainment infrastructure.

We believe that visiting our country will be a very exciting and interesting journey with a flavor of delicious Uzbek cuisine.

**We wish you a pleasant flight!**



# Bon!

Boulangerie • Pâtisserie

our locations

71 252 5694

boncafe.uz

Shevchenko 30,
Toshkent



# Bella Napoli

est. 2007

71 253 9183

bellanapolitashkent

Sh. Rustaveli 63

# O‘zbekistondagi turizm yo‘nalishlari




Turizmni faol rivojlantirayotgan O‘zbekiston bugungi kunda o‘z mehmonlariga gastronomik turizm, agroturizm, etnoturizm, ekoturizm, ziyorat turizmi va boshqa turizm turlarini taklif etishga tayyor.



## GASTRONOMIK TURIZM

O‘zbekiston har bir mehmonni milliy taomlarining mazasi bilan hayratga sola oladigan yurtdir. Mamlakat bo‘ylab gastronomik sayohat mehmonlarga juda ko‘p unutilmas taassurotlar hadya qiladi. Quyoshga o‘xshash issiq va totli non, palov, kabob, somsa va boshqalar mehmonlarga manzur bo‘lishi shubhasiz. O‘zbek oshxonasi dunyodagi eng xilma-xil va rang-baranglaridan biridir. Shuningdek, yurtimizda saxiy quyosh tufayli Yevropa yoki Janubiy Amerika sharoblari bilan raqobatlasha oladigan yaxshi sharob ham tayyorlanadi.



# EKOLOGIK TURIZM

Ushbu turizm turi ham mamlakatimizda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston eng go‘zal tabiati bilan bir qatorda “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi bilan ham sayyohlarni hayratga solishi mumkin.

Mamlakatda ko‘plab milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar mavjud. Masalan, Hisor qo‘riqxonasi nafaqat O‘zbekistondagi, balki butun O‘rta Osiyodagi eng yirik qo‘riqxona bo‘lib, bu yerda noyob qor qoploni va Turkiston silovsini yashaydi. O‘zbekistonda Pomir-Oloy, Hisor, Ugom, Katta Chimyon kabi noyob tog‘ tizmalari, yirik Seversov muzliklaridan boshlanuvchi daryolar, soylar va ko‘llar joylashgan. So‘nggi yillarda hajmi sezilarli darajada qisqargan Orol dengizi alohida e’tiborga loyiqdir. Natijada mintaqadagi ekologik vaziyat o‘zgardi. Mo‘ynoq hududidagi “kemalar qabristoni” esa ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

Qizilqumning cheksiz cho‘llari orasida hosil bo‘lgan Aydarko‘l doimiy ravishda o‘sib bormoqda va o‘z ichiga uchta: Arnasoy, Aydarko‘l va Tuzkon ko‘llarini qamrab oladi. Aydarko‘l esa aholi punktlaridan uzoqda joylashgani bois, bu yerda sokinlik va tabiat bilan uyg‘unlik muhiti hukm suradi.



# ZIYORAT TURIZMI

Bugungi kunda mashhur  sayyohlik yo'nalishlarining hammasi ham o'z mehmonlariga ziyorat turizmini taklif qila olmaydi. Muqaddas joylarni ziyorat qilish esa - turizmning alohida turi hisoblanadi.



O'zbekiston muqaddas qadamjolar - maqbaralar, masjidlar, yodgorliklar, g'orlar va boshqa ko'plab ziyorat joylariga ega mamlakatdir. Asrlar davomida bu zamin turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar kesishgan markaz bo'lgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan va shuning uchun islom, buddizm va xristian dinlari, shuningdek, so'fiylik bilan bog'liq noyob qadimiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Binobarin, O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha ulkan salohiyatga ega dunyodagi kam sonli davlatlardan biridir. Mamlakatimiz butun dunyoda yagona maskan – so'fiylik o'chog'i sifatida tanilgan. Qolaversa, Xorazm viloyati  qadimiy dinlardan biri – zardushtiylik (otashparastlik)ning beshigi hisoblangan.

Islom madaniyatining eng qimmatbaho yodgorliklari YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ular orasida islom olamida Buxoroi sharif nomi bilan tanilgan Buxoro shahri ham bor. Shuningdek, Samarqand shahrida ham anchagina  muqaddas joylar mavjud. Shahrisabz shahri esa Amir Temurning tavallud topgan yurti. Albatta, bu shaharlar qadimiy va boy tarixga ega, asrlar davomida ular sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirgan.

Samarqanddagi Xo'ja Doniyor maqbarasi alohida e'tiborga loyiqdir. Doniyorni musulmonlar payg'ambar deyishadi. Afsonaga ko'ra uning qabri o'sib borgan va yoki payg'ambar hoki aynan qayerda ekanini bildirmaslik uchun uzun qilib qurishgan. Bu Samarqandga kelgan har bir sayyoh va ziyoratchi uchun maxsus maskan hisoblanadi. U yerdagi buloq suvi esa shifobaxsh va muqaddasdir. Din peshvolarining qayd etishicha, bu yer musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar ibodat qilish uchun keladigan kamdan-kam joylardan biridir.





1968-yilda eski Termiz shahri hududidan Budda haykali topildi va shundan beri bu yer koʻplab arxeologlarning asosiy tadqiqot obyektiga aylandi, keyinchalik esa eng qadimgi Budda ibodatxonalari majmualari ham topildi: Fayoztepa (miloddan avvalgi 1-asr - milodiy 3-asr), Kampirtepa, Qoratepa shular jumlasidandir. Qadimgi musiqachilar tasvirlangan mashhur Ayritom frizi elementlarining topilishi esa bu hududda bir vaqtlar buddizm dini mavjud boʻlganidan dalolat beradi.





# ETNIK TURIZM



Oʻzbekistondagi turistik kompaniyalar etnik turizmning keng qamrovli tanlovini taklif qiladi. Bu yerda siz qishloq aholisining hayotida ishtirok etishingiz, chekka qishloqda yoki uylarda yashashingiz, mahalliy toʻy yoki aqiqa kabi bayram tantanalarida qatnashishingiz, ot va tuyalarga minishingiz, rang-barang choʻllarda safarga chiqib serqirra Oʻzbekistonning noyob ekzotik faunasidan bahramand boʻlishingiz mumkin boʻladi.

Siz Oʻzbekiston xalqlarining hayoti va madaniyatini, mahalliy aholining koʻp asrlik anʼanalari va turmush tarzini asl holida saqlangan tabiat fonida oʻrganishingiz mumkin boʻladi.





# Types of tourism in Uzbekistan

Ideal conditions allow Uzbekistan to develop tourism actively, today the country is ready to offer its guests many types of tourism: gastronomic tourism, agritourism, ethno-tourism, ecotourism, pilgrimage tourism and others.

## 1 Gastronomic tourism

Uzbekistan can impress every guest with the taste of national dishes.

A gastronomic journey around the country will provide the traveler with a lot of unforgettable experiences. Delicious national fragrant hot bread, that looks like sun; nutritious pilaf, Uzbek barbecue - shashlik, samsa and many other dishes will certainly amaze the guest.

Uzbek cuisine is perhaps one of the most diverse and colorful in the world.  Even wine that produced in our country, thanks to the generous sun,  can be compared with the wines of Europe or South America.













# 2 Ecological tourism

It is also one of the important types of tourism here. Along with the most picturesque nature, Uzbekistan can surprise with a variety of Red Book flora and fauna. The country has many national parks and reserves. For example, Gissar Reserve is the largest not only in Uzbekistan, but throughout Central Asia; a rare snow leopard and the Turkestan lynx live here.

There are unique mountain systems in Uzbekistan: Pamir-Alay, Gissar Range, Ugam Range, Big Chimgan Range, the large Severtsov Glacier, from where rivers, streams and lakes originate. Aral Sea, that has greatly decreased in size in recent years, deserves special attention. As a result, the ecological situation in the region has changed. Many tourists are attracted by the cemetery of ships in Muynak area.

Lake Aydarkul, formed among the endless deserts of Kyzylkum, is constantly growing and includes three lakes: Tuzkan, Arnasay and Aydarkul. Lake Aydarkul is located away from human settlements, and therefore silence and an atmosphere of solitude with nature reign here.

# 3 Pilgrimage tourism

Today, not all well-known tourist destinations can offer their guests places for pilgrimage tourism. Visiting holy places is a special kind of tourism.

Uzbekistan is a country with a large concentration of holy places- mausoleums, mosques, memorial complexes, caves, etc. For many centuries, this land was the center of the intersection of different cultures and civilizations, different religions were preached here and therefore unique ancient monuments related to the Islamic, Buddhist and Christian religions, as well as Sufism, have been preserved. Thus, Uzbekistan is one of the few countries in the world that has a great potential for the development of pilgrimage tourism. Throughout the world, it is known as the only place- the cradle of Sufism. Moreover,  Khorezm region is also the cradle of the first major world religion- Zoroastrianism (fire worship).

The most valuable monuments of Islamic culture are recognized as UNESCO World Heritage Sites. Among them is the city of Bukhara, called Bukhara-Sharif in the Islamic world, which means Blessed Bukhara. The city of Samarkand, in which there are a considerable number of significant holy places. The city of Shakhrisabz is the birthplace of Amir Temur.









Of course, these cities have an ancient and rich history, they have undergone significant changes throughout their lives.

The mausoleum of Khoja Daniyar deserves special attention. Daniyar is Muslims name of the prophet Daniel. The tomb where the ashes of St. Daniel rest is constantly increasing in length. This is an obligatory place to visit for every tourist and pilgrim who comes to Samarkand. Water from a local source is considered sacred. Religious leaders note that this is one of the rare places where Muslims, Christians and Jews come to pray.

In 1968, a statue of Buddha was discovered on the territory of the old city of Termez and since then this land has become the main object for the study of many archaeologists, later the oldest Buddhist temple complexes were discovered: Fayaztepa (1st century BC- 3rd century AD), Kampyrtepa, Karatepa. And the discovery of elements of the famous Airtam frieze depicting ancient musicians was evidence that Buddhism was once preached in this region.

# 4 Ethnic tourism

Travel companies in Uzbekistan offer a wide variety of ethnic tours to choose from. Here you can take part in the life of local villagers, live in a remote village or in yurts, attend a local wedding or a celebration on the occasion of the birth of a child, ride horses and camels, go on a safari through the colorful deserts and enjoy the unique exotic fauna of the many-sided Uzbekistan.

You will be able to join the life and culture of the peoples of Uzbekistan and study the centuries-old traditions and way of life of local residents against the backdrop of pristine nature.







# SAYOHATLARINGIZ UCHUN BEPUL CHECK-LIST!

## FREE CHECKLISTS FOR YOUR TRAVELS!

**Tailand, Turkiya va BAAda nima qilish mumkin?**

Biz qiziqarli joylar ro'yxatini tuzdik va ularni sizga sovg'a qilamiz. Siz esa bizning Instagram-ga obuna bo'ling va Direct-ga **"Check-list"** kod so'zini yozib yuboring!

@easybooking.uz

**What can you do in Thailand, Turkey and the UAE?**

We have made useful lists of places and want to give them to you. Subscribe to our Instagram and send the code word **"Checklist"** to Direct!

skaner qiling




# SAYOHAT QILISH BU EASY.

**Biz turlar uchun eng yaxshi narxlarni taklif qilamiz.**



**Dubay**
BAA
★★★★★ 5.0
$ 789 dan



**Istanbul**
Turkiya
★★★★★ 5.0
$ 550 dan



**Pxuket**
Tailand
★★★★★ 5.0
$ 1150 dan

EASY BOOKING
FLIGHTS · HOTELS · TOURS · TRANSFERS

YANGILIK! VIZA KERAKMI?
BIZGA QO'NG'IROQ QILING!

easybooking.uz 1240




PLOV
LOUNGE & BANQUET HALL
Sizni Abdulla Qodiriy ko'chasi 25/1
manzilida kutamiz.
Raqam bo'yicha jadvalni bron qilish:
90 951-55-88, 71 237-67-06
plovlounge

# O'ZBEKISTON FESTIVALLARI



O'zbekiston - unumdor zamin, xalqi esa samimiy va mehmondo'st. Asrlar davomida uning aholisi an'anaviy o'yinlar, sport musobaqalari, tomoshalar bilan o'tadigan rang-barang festivallar va bayramlar uyushtirib kelgan. Hozirgi kunda mamlakatda tobora ko'proq xalqaro madaniy, musiqiy va tematik tadbirlar o'tkazilmoqda. Yil davomida turli festivallar va milliy bayramlar nishonlanadi. Ayniqsa, sayyohlik mavsumi sanalgan bahor va kuz fasllarida mamlakatning bir qancha hududlarida yorqin tadbirlar bo'lib o'tadi. Mo'ynoqdagi "Stixiya", Samarqanddagi "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivallari, shuningdek, Marg'ilondagi "Adras", Surxondaryodagi "Boysun bahori", Buxoroda "Ipak va ziravorlar", Xivadagi qovun sayli va boshqa ko'plab tadbirlar shular jumlasidandir.

## Musiqa festivallari

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali Markaziy Osiyodagi eng yirik festivallardan biridir. U Samarqand shahrining yuragi hisoblangan Registon maydonida o'tkaziladi. "Sharq taronalari" turli mamlakatlarning milliy musiqa san'atini ulug'lash maqsadida yaratilgan.

"Stixiya" - Moʻynoqda oʻtkaziladigan xalqaro elektron musiqa, san'at va ilm-fan festivali. Dastlab bu faqat musiqiy tadbir boʻlgan, bugungi kunda esa «Stixiya» musiqachilar, DJ-lar, prodyuserlar, san'at arboblari va olimlar jalb etilgan bir nechta loyihalarni oʻzida birlashtiradi. Ularning barchasini yer yuzidagi oʻziga xos maskanda diqqatga sazovor joy yaratish maqsadi birlashtiradi.



## Gastronomik festivallar

Xorazm viloyatidagi "Xorazm baliq taomlari" festivali. Bu festivalda Xorazm viloyatida yetishtiriladigan baliq turlari, ulardan tayyorlangan taomlar koʻrgazmasi tashkil etiladi. Festivalda mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan baliq taomlari boʻyicha mutaxassislar, mohir oshpazlar ishtirok etadi. Ushbu aksiya Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻistonda gastronomik turizm salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.



## Xivadagi qovun sayli

Xorazm viloyati shirin navli qovunlari bilan mashhur. Ayniqsa faqat Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻistonda oʻsadigan Xorazm qovunchiligi ramzi boʻlgan "Gurvak" navi alohida oʻrin tutadi. Qovun sayliga tashrif buyurgan mehmonlar 40 dan ortiq qovun turlari bilan tanishish va tatib koʻrish imkoniyatiga ega boʻladilar.

## Folklor festivallari

Oʻzbekistonning janubida joylashgan Boysun shahrida 2002-yildan buyon "Boysun bahori" festivali oʻtkazilib kelinadi. Ushbu festival an'analarga sodiqlik va tarixiy merosga hurmat ramzidir. Bu yerda milliy tomoshalarning xilma-xil koʻrinishlarini oʻzida aks ettiradigan turli-tuman folklor jamoalari oʻz san'atlarini namoyish etadi.

## "Milliy xalq oʻyinlari" festivali

Buxoro viloyatida milliy va xalq oʻyinlari tomoshalari oʻtkaziladi. Festivalda mamlakatimizning turli nuqtalaridan kelgan folklor-etnografik jamoalari qadimiy raqs va koʻngilochar an'analarning goʻzalligini namoyish etadi. Teatrlashtirilgan yorqin tomoshalarga esa yarmarkalar, milliy oʻyinlar hamisha hamroh boʻladi.

## "Ipak va ziravorlar" festivali

Buxoroda oʻtkaziladigan ushbu festival Oʻzbekistondagi eng yorqin va mashhur an'anaviy tadbirlardan biri. Buxoro shahri asrlar davomida savdo, hunarmandchilik, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va ma'naviyat markazi hamda Buyuk Ipak yoʻlida muhim toʻxtash joylaridan biri boʻlib xizmat qilgan. Buxoroda hunarmandchilik azaldan rivojlanib kelgan. Endilikda "Ipak va ziravorlar" festivali xalq amaliy san'ati va ogʻzaki ijodi yutuqlarini namoyish etmoqda.

*Bu rang-barang va oʻziga xos tadbirlar Oʻzbekiston xalqining qadimdan saqlanib qolgan madaniy an'analari va xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ularni "xalqning ruhi" deb atash mumkin. Odatda festivallar ommaviy sayllarga ulanib ketadigan raqslar, xalq qoʻshiqlari, dorbozlarning chiqishlari, esdalik sovgʻalari sotiladigan doʻkonlari, lazzatli milliy taomlarni tatib koʻrishingiz mumkin boʻlgan pazandalik tanlovlariga boy yarmarkalar va tomoshalar bilan oʻtkaziladi.*

*Festival tashkilotchilari yangi, oʻzgacha va mutlaqo gʻayrioddiy narsalarni topishingiz mumkin boʻlgan sayyohlik yoʻnalishi sifatidagi Oʻzbekiston haqida gapirishlari muhim hisoblanadi. Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish konsepsiyasiga koʻra, mamlakat festivallar diyoriga aylanishi kerak va shuning uchun ham bunday tadbirlar roʻyxati doimiy ravishda yangilanib turadi. Agar ilgari mamlakatda oʻtkazilgan festivallar koʻproq milliy xususiyatga ega boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda "Rally Muynak", jazz, teatr festivallari, xalqaro sport musobaqalari va boshqa qiziqarli zamonaviy tadbirlar ham oʻtkazilmoqda. Ularning barchasi Oʻzbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish bilan bir qatorda mamlakatimizga tashrif buyurish uchun qiziqish va ishtiyoqni oshirishga qaratilgan.*

*Odatda barcha mehmonlar mahalliy aholining samimiyligi, ochiqligi va mehmondoʻstligini qayd etadi. Boy meros, rang-barang an'analar va mehmonlarga chuqur hurmat – bularning barchasi Oʻzbekistonga yana va yana qaytish istagini uygʻotadi.*

# FESTIVALS IN UZBEKISTAN

Uzbekistan is a fertile land with hospitable and friendly people. For centuries, its residents have been hosting colorful festivals and holidays with traditional games, sports and performances. Now more and more international cultural, musical and thematic events are taking place in the country. Festivals and national holidays are celebrated all year round. Especially during the high tourist season, in spring and autumn, bright events are celebrated all year round in all regions of the country. International music festivals: The Stihia in Muynak, Sharq Taronalari in Samarkand, as well as Adras Festival in Margilan, Boysun Bahori in Surkhandarya, Silk and Spices in Bukhara, the melon festival in Khiva and many others.








## Music festivals

Sharq Taronalari International Music Festival is one of the largest festivals in Central Asia. It is held in the heart of the city of Samarkand, at Registan Square. Sharq Taronalari was created to glorify the national musical art of different countries.

The Stihia- International festival of electronic music, art and science in Muynak.
Initially it was exclusively a musical event, but today The Stihia has become a mixture of several projects involving musicians, DJs, producers, artists and scientists. All of them are united by a single goal of creating a powerful attraction in a very unusual place on earth.



## Gastronomic festivals

Festival of Khorezm fish dishes. There is an exhibition of fish species grown in Khorezm region, and the meals. Specialists of fish meals, professional chefs from all regions of the country take part in the festival. This action is designed to promote the potential of gastronomic tourism in  Khorezm region and Karakalpakstan.

## Melon Festival in Khiva

Khorezm region is traditionally famous for its sweet varieties of melons. Here Gurvak is a special variety. Therefore, a festival is held here. Each guest can get acquainted and taste of over 40 different types of melons.



## Ethnic festivals

Boysun Bahori festival has been held in the south of Uzbekistan, in the city of Boysun since 2002. It symbolizes adherence to traditions and respect for the historical heritage. There is a rich variety of various folklore groups representing different types of national entertainment.

## National Folk Games festival

Shows of national and folk dances are held in the Bukhara region.
At the festival, folklore and ethnographic groups from different regions of the country demonstrate the beauty of ancient dance and entertainment traditions. Bright theatrical performances are always accompanied by fairs and national games.



## Silk and Spices Festival

The city of Bukhara has been a center of trade, crafts, science, education, culture and spirituality for centuries and an important stop on the Great Silk Road. Crafts have always developed in Bukhara. And now Silk and Spices festival demonstrates the achievements of the development of folk arts and crafts.

These colorful and original events clearly demonstrate the cultural traditions and characteristics of the people of Uzbekistan, preserved since ancient times. They can be called as the soul of the people. Usually festivals are accompanied by mass festivities with rich fairs and shows: dances, folk songs, performances of tightrope walkers, souvenir shops, cooking competitions where you can taste delicious national dishes.

*For festival organizers it is important to position Uzbekistan as a tourist destination where you can find something new, fresh and completely unusual.*

*According to the concept of tourism development in Uzbekistan, the country should turn into a country of festivals, and that is why the list of such events is constantly updated. If earlier festivals in the country were more of a national character, today modern festivals are also held, such as Rally Muynak, Jazz Festival, Theater Festival, international sports competitions and other equally interesting events.*

*All of them, along with the rich historical and cultural heritage of Uzbekistan, are designed to increase interest and desire to visit our country.*

*Usually all guests note the sincerity, openness and friendliness of the locals.*

*A rich heritage, colorful traditions and deep respect for guests - all this will make you want to return to Uzbekistan again and again.*






# Hampton – aniq tanlov

## Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan tarzda dam oling.

Hampton by Hilton

Funktsionallik va qulaylik uchun intuitiv tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, **har safar sizga uzluksiz tajriba** taqdim etish bizning ustuvor vazifamizdir. Siz ishonishingiz mumkin bo'lgan turli xil qulayliklar bilan sayohatingiz davomida sizga kerak bo'lgan hamma narsaga ega bo'lasiz.

Hampton by Hilton Tashkent
17, Istiqbol str.,
Tashkent, Uzbekistan,
100047
+998712052200
http://hampton.com/

- Bepul, issiq nonushta
- Zamonaviy fitness markazi 24/7
- Biznes markazi 24/7
- Bepul Wi-Fi

Hampton - bu butun dunyo bo'ylab 2700 ta mehmonxonadir. Qaysi birida qolsangiz, sizni samimiy tabassum va e'tibor bilan kutib olishadi. Chunki mehmonlarimiz xursand bo'lsa, biz ham xursandmiz.

**Bu 100 foiz Hampton™ kafolatidir**

# **The easiest decision** of your trip.

## Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Intuitively designed for both functionality and comfort, it's our priority to give you **a seamless experience — every time**. With a variety of amenities you can count on, you will have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton Tashkent
17, Istiqbol str.
Tashkent, Uzbekistan, 100047
+998712052200
http://hampton.com/

- Free, hot breakfast
- Modern fitness centre 24/7
- Business center 24/7
- Free WiFi

With 2,700 locations across the globe, wherever and whenever you stay with us you'll be welcomed with a warm smile and thoughtful service that makes you happy — because that's what makes us happy.

**That's the 100% Hampton Guarantee™**

# O‘ZBEKISTON TURIZM QISHLOQLARI

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab turizm sohasining yo‘nalishlari orasida qishloq turizmi ommalashib bormoqda. Shahar shovqinidan dam olib, sokinlik va tabiatning go‘zalligidan bahramand bo‘lish uchun O‘zbekistonning zamonaviy texnologiyalardan xoli, ammo havosi musaffo, o‘ziga xos va qadimiy tarixning bir parchasi bo‘lgan chekka qishloqlarida dam olishingiz mumkin.

Endilikda o‘zbek qishloqlarida yashashning imkoni paydo bo‘ldi. Siz chekka hududlarda joylashgan qishloqlarga borib, u yerda joylashishingiz va mahalliy aholining turmush tarzini bilib olishingiz mumkin. Variantlar talaygina – chorvachilikdan (yilqichilik, qoramolchilik, baliqchilik, parrandachilik) tortib meva va sabzavotlarni yetishtirishgacha. Odatda, chekka o‘zbek qishlog‘idagi uylar paxsa yoki xom g‘ishtdan qurilgan, kichik darvoza orqali kiriladigan bo‘ladi. U yerlardagi deyarli har bir oila o‘zining tomorqasi va bog‘iga ega. Qishloqlarda siz mehmon kutish uchun mo‘ljallangan maxsus uylarda to‘xtab o‘tishingiz mumkin bo‘ladi.





Har bir mehmonning tashrif buyurishi bilan mezbonlar ularni iliq kutib olishib, oldilariga bezatilgan dasturxon yozib, bayram taomi hisoblangan palovni tayyorlashadi. Bunday uylarning ichki qismida siz atrofiga yumshoq koʻrpachalar toʻshalgan, tandirda pishgan issiq non va somsalar bilan bezatilgan xontaxta atrofida oʻtirasiz. Milliy taomlar esa asosan oʻchoqda tayyorlanadi. Toza togʻ havosida sharqona ziravorlar qoʻshib tayyorlangan taomlar yanada mazalidir. Bundan tashqari, istasangiz milliy taomlarni tayyorlash jarayonida ishtirok etishingiz ham mumkin boʻladi.

Qishloq turizmining boshqa turdagi turizm yoʻnalishlaridan ajralib turadigan eng muhim jihati shundaki, mehmon mahalliy aholi hayotida yashab koʻrishi, shu tariqa oʻlkani reklama broshyuralarida yozilgandan koʻra koʻproq oʻrganishi, ot va tuya kabi jonzotlarni minib koʻrishi mumkin. Har bir qishloqning oʻziga xos madaniy qadriyatlari mavjud boʻlib, u oʻzbek xalqining butun oʻziga xosligi va turmush tarzini oʻzida aks ettiradi. Bu yerlarda koʻpincha toʻylar, mahalliy va anʼanaviy bayramlar oʻtkaziladi, mahalliy aholi esa oʻz mehmonlarini bunday tadbirlarga mamnuniyat bilan taklif qiladi.

Shu bilan birga, Oʻzbekistonning chekka goʻshalari ham qiziqarli, tarixiy maskanlardan xoli emas va ular tarixchilar tomonidan hali toʻliq oʻrganilmagan. Masalan, Navoiy viloyatida Sarmishsoy darasidan uncha uzoq boʻlmagan joyda Sentob turizm qishlogʻi joylashgan. U yerda siz yuzlab toshga oʻyilgan rasmlarni koʻrishingiz mumkin. Andijon viloyatida esa tarixiy qadamjolarga ega Imom ota qishlogʻi mavjud. Toshkent viloyatida Kumushkon sayyohlik qishlogʻi joylashgan boʻlib, uning hududida shifobaxsh suvli buloq bor.

*Oʻzbekistonning turizm qishloqlarida mutlaqo oʻzga dunyoni, betakror oʻsimlik va hayvonot olamini kashf etishingiz, xalqning mentaliteti bilan tanishib, ekologik toza mahsulotlardan bahramand boʻlishingiz mumkin.*





# Tourist villages of Uzbekistan

In recent years, among the various types of tourism in the world, rural tourism is gaining particular popularity. You can take a break from the bustle of the city, enjoy the silence and the pristine beauty of nature in the remote villages of Uzbekistan, where there are no modern technologies, but there is clean air, originality and a piece of ancient history.
Nowadays, it is possible to live in an Uzbek village. You can come to a remote region, settle in a village and find out how the locals run their household.

There are many options- from animal husbandry (horse breeding, cattle breeding, fishing, poultry farming) to growing vegetables and fruits. Often traditional houses in the Uzbek outback are made of clay with a small entrance.

Almost every family in the outback has its own piece of land with a small orchard and a farm. You can stay in the village in a guest house, which is designed specifically for receiving guests.

From the very beginning of the stay, local residents will make a warm welcome for each guest: with their best dastarkhan(serving), they will definitely prepare a festive dish, usually a delicious Uzbek pilaf. The interior in such houses is designed in an authentic style. Here, a khontakhta (low table) is used for meals, and people sit on soft kurpachas (blanket). Bread and samsa are baked in a special clay oven- tandoor. Most national dishes are cooked on an open fire. Dishes cooked in the fresh mountain air with oriental spices are doubly tastier. In addition, you will be shown the process of preparing national dishes and, if you wish, you can take part yourself.





The most important thing that distinguishes rural tourism from other types of tourism is that the guest will be able to participate in the life of the local people, thus learn much more about the country than is written in guidebooks and advertising brochures, ride horses and camels. Each village has its own cultural code, which conveys all the originality and way of life. Local festivals, weddings, traditional holidays are often held here, where the natives will gladly invite their guests.

However, the remote corners of Uzbekistan are also not devoid of interesting historical sites that are not yet fully studied by historians, but no less exciting. For example, in the Navoi region, not far from the Sarmyshsay gorge, there is a tourist village of Sentob. There you can see hundreds of rock paintings. In Andijan region there is Imam-ota village, with ancient shrines. The tourist village of Kumushkan is located in the Tashkent region, on the territory of which there is a mountain spring with healing water.



You can discover a completely different unknown world, completely unique flora and fauna, get to know the mentality of the people and enjoy environmentally friendly products in tourist villages of Uzbekistan.

YAPONA MAMA



# SUSHI VA ROLLAR

Panosiyo restoranlar tarmog'i

Pan-Asian restaurant chain

"Havo" promokodi bilan 20% chegirmaga ega bo'lasiz

20% OFF with "Havo" promocode

*Aksiya 30/12/22 gacha amal qiladi

Offer valid until 12/30/22

Buyurtma / Order

1089

Aloqa uchun / Contacts

@yaponamamabot

www.yaponamama.uz

yaponamama.uz

Takliflar va hamkorlik

+998 90 011-81-18

Jamoamizga qo'shiling/HR

+998 98 125-50-20

+998 98 124-50-20

# 2023-yilda Samarqand jahon turizm poytaxti boʻladi

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi 2023-yilda Samarqandda boʻlib oʻtadi. Oʻzbekiston ilk bor Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasiga mezbonlik qiladi. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari, Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov 2021-yilda Ispaniyaning Madrid shahrida boʻlib oʻtgan UNWTO 24-sessiyasi doirasida ovoz berib boʻlinganidan soʻng maʼlum qildi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston tarixidagi ikkinchi poytaxt boʻlgan Samarqand dunyoning koʻplab shaharlari bilan hamkorlikni mustahkamlamoqda. Oʻzbekistonning aksariyat shaharlari Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliyaning birodar shaharlari bilan yaxshi aloqalarga ega. Samarqand oʻndan ortiq birodar shaharlar bilan aloqalar oʻrnatgan. Ular orasida Krasnoyarsk va Samara (Rossiya), Plovdiv (Bolgariya), shuningdek Rio-De-Janeyro (Braziliya), Florensiya (Italiya), Lvov (Ukraina), Bremen (Germaniya) shaharlari bor. Bu shaharlar Samarqand bilan mamlakatlar oʻrtasidagi ikki tomonlama munosabatlarnining mustahkamlanishi yoʻlidagi yana bir katta koʻrsatkichidir.

Sayyohlik salohiyatining rivojlanishi bilan chet tillarini oʻrganishga talab ham ortib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyundagi Farmoni bilan xalqaro maqomga ega boʻlgan birinchi “Ipak yoʻli” xalqaro turizm universiteti tashkil etilgan boʻlib, u taʼlim, fan va ishlab chiqarishni yaqindan integratsiyalashuviga asoslangan oliy taʼlim muassasasi sanaladi.  Ushbu oliy taʼlim muassasasi mamlakatimizda turizm sohasidagi birinchi universitet hisoblanadi. Taʼlim muassasasi mamlakatimiz turizmini rivojlantirish va targʻib qilish sohasida mutaxassislar tayyorlaydi, shuningdek, Oʻzbekistonga sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda Samarqand tanib boʻlmaydigan darajada oʻzgardi. Yangi sayyohlik joylari hamda Samarqand xalqaro aeroportining yangi terminali qurilishi mazkur sohada xizmat koʻrsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Silk Road Samarkand sayyohlik markazi qurildi. Mashhur eshkak eshish kanalining ikki qirgʻogʻida joylashgan “Boqiy shahar” etnoshaharchasi, mehmonxonalar va Kongress zali barpo etildi.

